

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

JISMONIY TARBIYA VA SPORT TADBIRLARI O'TKAZISHDA MILLIY-MA`NAVIY QADRIYATLARNING O`ZIGA XOS USULLARI.

*Akramov Quvonch
CHDPU 2 kurs talabasi*

Annotatsiya. Respublikada milliy qadriyatlar va ularning ijtimoiy-tarbiyaviy ahamiyati haqida so'nggi yillarda qator tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Bunda taniqli olimlar U.Qoraboyev, T.Javliyev, I.Jabborov, R.Abdumalikovlarning tadqiqot ishlari alohida o'rinn tutadi. Tadqiqotlarda qayd qilinishicha milliy an'analar – donishmandlik manbai, hayot sabog' idir. Tarixiy taraqqiyotning hal qiluvchi kuchi hisoblangan xalq ommasi – milliy an'analar ijodkori sanaladi.

Har bir xalqning milliy-ma`naviy qadriyatlari, ilg'or an'analar, urf-odatlari va marosimlari jahon madaniyati xazinasiga qo'shilgan buyuk hissadir. Ularning ko'p sohalari mahalliy qobiqdan chiqib, xalqaro ahamiyat kasb etmoqda, chunki an'analarining asosiy turlari va yo'nalishlari ayniqsa, Markaziy Osiyo davlatlari xalqlari orasida qadimdan tarkib topib, bir-birini boyitib va to'ldirib kelgan.

O'zbek xalqining milliy an'analarini avloddan avlodga o'tib, yoshlarni tarbiyalashda beباho xizmat qilib kelmoqda. Buning zaminida milliy ong va milliy o'zlikni anglash, o'z millati tarixini, milliy tilini, tabiatini, iqtisodiyotini, milliy madaniyatini anglayotganligini unutmaslik kerak.

Milliy an'analar deganda, qadimgi ajdod va avlodlarimizning ijtimoiy turmush sharoitida doimiy ravishda qo'llanilib kelingan turli bayramlar, sayllar, to'ylar, turli marosimlar, ma'rifiy tadbirlar ham tushuniladi.

Milliy an'analar mazmuni beqiyos, keng va boydir. Ular ijtimoiy-madaniy jarayonlarning tarixiy rivojlanishi natijasida zamon ruhi va davr talablari asosida mazmunan boyib, shaklan takomillashib bizgacha yetib kelgan.

O'zbek xalqining milliy an'analarini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilgan taniqli olim I.Jabborovning ko'rsatishicha, O'zbekiston hududida yashagan qadimgi ajdodlarimiz va yaqin o'tmishda istiqomat qilgan avlodlarimiz milliy an'analarini quyidagi turlarga ajratganlar va ularni turmush tarzi mazmuniga qarab qo'llab kelganlar:

- moddiy madaniyat namunalari.
- uy-joy jihozlari.
- kiyim-kechak, sarpo, pardoz-andoz bezaklari.
- pazandachilik.

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

- ijtimoiy munosabatlар, mahallachilik.
- xalq bayramлari, o'yin va marosimlar.
- oilaviy-maishiy an'anlar.
- ilm-fan va ma'rifat.
- xalq og'zaki ijodi.
- xalq teatri va milliy raqslar.
- xalq amaliy san'ati.

E'tirof etish kerakki, ijtimoiy-ma'rifiy va madaniy sharoitlar milliy an'analar tarkibiga chuqur singib, ularning o'ziga xos xususiyatlari, tarbiyaviy jihatlari, ommaviy sog'lomlashtirish manbalari bilan uzviy bog'lanib ketgan.

Bu jihatlarni ilmiy-amaliy jihatdan o'rganish va ularni talabalar ongiga singdirish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekistonning janubiy hududlarida (Qashqadaryo, Surxondaryo va uning atroflari) istiqomat qiluvchi xalqlarning qadimgi va hozirgi zamon milliy an'analarini o'rganishda T.Javliyevning tadqiqotlari e'tiborga loyiqidir. Uning e'tirof etishicha, milliy an'analar quyidagi sohalarni o'zida mujassam etadi:

Milliy an'analar sifatida namoyon bo'ladigan Xalq bayramлari jismoniy ta'lim jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada professor U.Qoraboyevning olib borgan tadqiqot ishlari ahamiyatlidir.

Eng muhim tomoni shundaki, U.Qoraboyev O'zbekistonda qadim zamonlardan buyon an'anaviy ravishda o'tkazilib kelingan va so'nggi yillarda mazmunan va shaklan zamonaviy tus olgan ko'pgina bayramlar, marosimlar, urf - odatlarni chuqur o'rgangan.

Olim tadbirlarning ijtimoiy ahamiyatlariga qarab bir qator toifalarga ajratadi, ya'ni:

Ommaviy bayramlar:

an'analar; odatlар; marosimlar; bayramlar (xalq namoyishi, tantanali bayramlar, kechalar, teatrlashtirilgan tomoshalar, xalq o'yinlari, musobaqalar).

Zamonaviy bayramlar:

yangi yil bayrami; tabiatsevarlar bayrami; gul va qush bayrami;
Mehrjon va h.k.

Mehnat bayramlari:

- navro'z bayrami; qishloq xo'jalik xodimlarining mehnat (hosil) bayrami; urug' qadash (sepish) va birinchi gul (boychechak) bayrami; hosil bayrami; sanoat-ishchilar mehnat bayrami.

Madaniyat bayramlari:

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

ma'rifat bayrami; san'at bayrami; folklor bayrami; kinochilar bayrami; badiiy sport bayrami; xalqaro do'stlik bayrami.

Oilaviy-xususiy bayramlar:

tug'ilgan kunlar va muchal yoshi; beshik to'yi; birinchi qadam (yurish) bayrami; sunnat to'yi; maktab yoshiga yetish bayrami; nikoh to'yi; kumush, oltin va olmas to'ylar; faxriylikka kuzatish.

Ijtimoiy-siyosiy bayramlar:

Mustaqillik kuni; Xotin-qizlar kuni; Talabalar kuni; Xotira kuni; O'qituvchilar kuni; Jismoniy madaniyatçilar kuni; Yoshlar kuni, Nogironlar kuni va boshqalar.

Diniy bayramlar:

- ro'za (amazon) hayiti; Qurbon hayiti.

Yuqorida nomlari qayd etilgan bayramlar, marosimlar, urf-odatlarni xalqimizning zamonaviy milliy an'analariga aylanib ketgan eng muhim yirik tadbirlari, anjumanlari desa bo'ladi. Tabiiyki, deyarlik barcha tadbirlarning o'ziga xos xususiyatlari va maqsadlari bor. Ularning mazmunida ijtimoiy-tarbiyaviy va ommaviy sog'lomlashtirishga oid pedagogik jarayonlar mujassamlashib ketganligini ko'rish mumkin.

Samarqand, Jizzax, Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro viloyatlarida qo'llanilib kelinayotgan milliy an'analarining Toshkent, Sirdaryo, Farg'ona vodiysidagi an'analardan ba'zi bir farqli xususiyatlari ham yuqorida nomlari qayd etilgan mutaxassislarning ishlarida aks ettirilgan.

Aholi o'rtasida o'tkazilayotgan barcha milliy an'analar, bayramlar, to'ylar, ayniqsa zamonaviy marosimlar davr ruhiga va tarbiya talablariga mos kelmog'i kerak. «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lidan» nomli nazariy metodologik qo'llanmasida shunday deydi: «Xalqimizning asrlar osha yashab kelgan an'analar, urf-odatlari, tili va ruhi negiziga qurilgan milliy mustaqillik mafkurasi umuminsoniy qadriyatlar bilan mahkam uyg'unlashgan holda kelajakka ishonch tuyg'usini odamlar qalbi va ongiga yetkazish, ularni Vatanga muhabbat, insonparvarlik ruhida tarbiyalashi, halollikni, mardlik va sabr-bardoshlilikni, adolat tuyg'usini bilim va ma'rifatga intilishni tarbiya yo'lida xizmat qilishi lozim» deb ta'kidlaydi.

Haqiqatdan ham milliy an'analar, alohidaligicha yashay olmaydi. Har qanday an'analar umuminsoniylik an'analar bilan uzviy bog'liq bo'lmog'i lozim. An'analar milliylikdan mintaqaviylikka, mintaqaviylikdan umuminsoniylikka qarab rivojlanadi. Shunday muqaddas qonuniyatni inobatga olgan holda milliy an'analarini saqlash, asrab avaylash, ularni rivojlantirish va asosiysi ta'lim va tarbiyada qo'llab borish hozirgi pedagogikaning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

Milliy ana'nalar mazmunida barcha tarbiyaviy shart-sharoitlarning to'la mujassamlashishi tabiiy bir holdir. Chunki unda fuqarolarni, ayniqsa, o'quvchi-yoshlarni mehnat qilish, kasb-hunar egallash, Vatan himoyasiga yaroqli qilib tarbiyalab voyaga yetkazish kabi hayotiy faoliyatlar yig'indisi aks etgan. Bunda jismoniy tarbiya va sportning o'ziga xos o'rni va xususiyati borligini inkor etib bo'lmaydi. Haqiqatan ham, turli an'anaviy bayramlar, to'ylar, marosimlar, ayniqsa «Navro'z» «Mustaqillik kuni», «Hosil bayrami» Jismoniy madaniyatçilar kuni, O'qituvchilar kuni, Yangi o'quv yiliga bag'ishlangan sog'lomlashtirish musobaqalari, ta'til paytlaridagi sport musobaqalari, «Quvnoq startlar»ga tayyorgarlik, «Mahalla polvonlari», «Sog'lom oila» va boshqa ko'pgina ommaviy-madaniy hamda sog'lomlashtirish tadbirlarining tashkil qilinishi an'analarni ulug'lash, davom ettirish va ko'ngil ochish bilan chambarchas bog'liqdir. Shunga o'xshash sport tadbirlari va xalq milliy o'yinlari, ayniqsa, ko'pkari-uloq, poyga, kurash, dorboz, tosh ko'tarish v.b. kabi milliy harakatli o'yinlar xalq, tomonidan doim e'zozlanib kelinmoqda. Shuning uchun ulardan to'ylar, udumlar, mahalla va qishloqlardagi an'anaviy tadbirlar dasturida chegaralanmagan tarzda foydalaniladi. Umumiy an'analarni mavjud adabiyotlar, kuzatishlar orqali o'rganish va jismoniy madaniyatga bog'liq an'analarni yo'nalishi, mazmuniga ko'ra qo'yidagi tasniflash mumkin. Ushbu an'analarni jismoniy ta'lim jarayonini takomillashtirishning asosiy vositalari qilib belgilandi. O'z navbatida har bir jismoniy madaniyatga bog'liq milliy an'ana yana turkumlar bo'linadi.

Milliy an'analarning jismoniy madaniyat bilan aloqadorligini, ularni tarbiyaviy ahamiyatini o'rganish va jismoniy ta'lim jarayoniga tadbiq etish zarur. Milliy an'analarni avvalo jismgniy madaniyat yo'nalishida taxsil oladigan talabalarni o'qitish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi davrda oliy ta'lim muassasalarini bitirib chiqayotgan yoshlarning barchasi ham mutaxassis sifatida jismoniy madaniyatni shakllantirishda milliy an'analarni qo'llash, uning ilg'or shakl va metodlaridan foydalanishga doir yetarli darajada ma'lumotga ega emaslar, ular milliy an'analardan ommaviy sog'lomlashtirish, sport tadbirlari va xalq milliy o'yinlarini tashkil qilishni hozirgi kun talablari darajasida egallab olmaganlar. Shunga ko'ra talabalar bo'lajak mutaxassis sifatida jismoniy ta'lim jarayonini milliy an'analar vositasida tashkil etishda avvalo milliy an'analarni bilishi va ular vositasida jismoniy ta'lim mazmunini boyitishda bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishni taqozo etadi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 271-sonli qarori. 1999, 27 may.
10. "Alpomish" va "Barchinoy" maxsus testlari haqida Nizom. "Sport" gazetasi, 2000, 29 fevral.
11. Ro'zimatov, Islomjon. "Bosqon uloqtiruvchilarda jismoniy sifatlarning rivojlanishini belgilab beruvchi metodlarni ahamiyati." *Scientific-theoretical journal of International education research* 1.3 (2023): 92-97.
12. Rozmatov, Islamjon, and Sanjarbek Gulomjonov. "The specific importance of motor methods of special training in short-distance running." *International Bulletin of Applied Science and Technology* 3.3 (2023): 89-93.
13. Xojimuradova, Mahliyohon, and Fakhriddin Inomov. "AN INNOVATIVE APPROACH TO THE DEVELOPMENT OF STUDENTS'MOVEMENT SKILLS AND COMPETENCIES IN PHYSICAL EDUCATION CLASSES." *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences*. 3.7 (2023): 252-257.
14. Nazirjonovich, Xatamov Zafarjon, and Inomov Faxriddin O'rmonjonovich. "Physical Education In Higher Educational Institutions Problems Of Formation Of Professional Skills On The Basis Of Science And Practice Ytegration In The Training Of Teaching Staff." *Journal of Positive School Psychology* (2023): 870-876.
15. Makhmudovich, Gofurov Abdushokir, Irmatov Shavkat Anvarovich, and Inomov Fahriddin O'rmonovich. "Development of physical activity of students based on physical education and sports classes." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.11 (2022)*: 135-141.
16. O'rmonjonovich, Inomov Faxriddin. "Problems of Development of Physical Culture and Sports after Independence." *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture* 3.12 (2022): 58-62.